

**BO‘LAJAK BOSHLANĠICH SINIF ŐQITUVCHILARINI
SAVODXONLIK DARSLARI ORQALI KASB KOMPETENSIYASINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

Yuldasheva Nilufar Abdullayevna

Toshkent amaliy fanlar universiteti

Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi va metodikasi

kaf. mud. p.f.dok. (DSc) prof.v.b

Fatxullayeva Shoxsanam Zafar qizi

Hakimjonova Dilnoza Nizomiddin qizi

Toshkent amaliy fanlar universiteti

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 1-kurs talabalari

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda savodxonlik darslarining o‘rni tahlil qilinadi. Savodxonlik nafaqat o‘qish va yozish ko‘nikmalarini shakllantirish, balki mantiqiy fikrlash, axborotni qayta ishlash va kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishga ham xizmat qiladi..*

Kalit so‘zlar: *kasb kompetensiyasi, savodxonlik darslari, pedagogik mahorat, o‘qish va yozish ko‘nikmalari, interfaol usullar, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, o‘qituvchi, ta‘lim sifatini oshirish.*

Yangi O‘zbekiston ta‘limi dunyoyoga yuz tutdi. Ta‘lim - tarbiya asosida olib borilayotgan ishlarimiz sifat bosqichiga kutraldi. Ilm-ma‘rifat – insonni kamolotga yetaklovchi, unga najot beruvchi buyuk ne‘mat. Imom Buxoriyning o‘n ikki asr avval “Dunyoda ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lmagay” degan fikrlari buning yorqin dalilidir. Ajdodlarimiz qadimdan ilm-ma‘rifat va farzand ta‘lim-tarbiyasiga ustuvor ahamiyat qaratib keladi. Bugun bu an‘ana davom etmoqda va so‘nggi yillarda mamlakatimizda ilm-fan va ma‘rifatga berilayotgan e‘tibor yaqin kelajakda o‘z samarasini beradi. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev ta‘biri bilan aytganda, mamlakatni bunyod etishda sog‘lom va barkamol yoshlarimizni hal qiluvchi kuch deb bilamiz. Shu maqsadda ularning bilim, madaniyat, san‘at va sport bo‘yicha salohiyatini ro‘yobga chiqarish, tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish borasida ham yangi tizim yaratamiz. Prezidentimiz o‘z fikrlarini davom ettirib, takror va takror aytaman: **“Yangi O‘zbekistonning asosiy ustuni – bilim, ta‘lim va tarbiya bo‘ladi!”**¹ Mana shu fikrlar ayni haqiqat. Ilm-ma‘rifat donishmandlari o‘qituvchi o‘z

¹ Mirziyoyev Sh. O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. Toshkent sh., 2020-yil 6-noyabr, PF-6108-son.

bilim malakasini oshirish usullarini puxta egallamoqi, mustaqil ishlashini o'rganmoqi lozim, degan edi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari bolalar uchun ta'lim va tarbiyaning poydevorini qo'yuvchi hamda jamiyat kelajagini shakllantiruvchi eng muhim kasb egalaridan biri hisoblanadi. Ularning ya'ni boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bilim va kompetensiyalari o'quvchilarning ta'lim olish sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu bosqichda o'quvchilarga nafaqat asosiy bilimlar beriladi, balki mustaqil fikrlash, mantiqiy tahlil qilish va kommunikativ ko'nikmalar ham shakllantiriladi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish dolzarb masalalardan biridir. Savodxonlik darslari esa ushbu jarayonning muhim qismi hisoblanadi. chunki u nafaqat o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshiradi, balki o'qituvchilarning pedagogik va metodik mahoratini ham takomillashtiradi. Bo'lajak mutaxassislarini tayyorlash jarayonida ilmiy va amaliy yondashuvlarga asoslanib, bo'lajak o'qituvchilar tomonidan kompetensiyaga asoslangan konsepsiyasini o'zlashtirish masalasi ularning nazariy bilimlarini oshirishga asoslangan oliy ta'limning uslubiy strategiyasini bilishlari asnosida sodir bo'ladigan jarayon hisoblanadi. Pedagogikada shaxsning o'qish-o'rganish natijasida o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalari hajmi, yo'nalishi va darajasiga mutaxassis layoqati deyiladi. Ta'lim-tarbiya hamda mustaqil o'rganish jarayonida kasbiy ma'lumotlar zaxirasi shakllanadi, ongli faoliyat, amaliy jarayonda rivojlanantiriladi. Ongli faoliyat jarayoni ta'limning sifatini ta'minlaydi. Uzlaksiz davom etadigan bunday jarayon oilada, maktabda va ta'lim tizimining barcha bo'g'larida, bosqichlarida amalga oshiriladi.

Kasb kompetensiyasi va uning tarkibiy qismlari.

Kasb kompetensiyasi- bu o'qituvchining kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar majmuidir. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun asosiy kasb kompetensiyalar quyidagilardan iborat:

- Metodik kompetensiya- ta'lim jarayonini rejalashtirish va samarali tashkil qilish.
- Didaktik kompetensiya-o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos dars berish usullarini tanlash.
- Raqamli kompetensiya-zamonaviy texnologiyalarni qo'llash.
- Refleksiv kompetensiya-o'z faoliyatini tahlil qilish
- Kommunikativ kompetensiya- o'quvchilar, ota-onalar bilan samarali muloqot qilish.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun asosiy kasb kompetensiyalar ni o'zlashtirish jarayonini tashkil qilishning asosiy shakli ta'lim va tarbiya mashg'ulotlaridan iborat. Ma'lumot olish manbalari darslik, qo'llanma, qo'shimcha adabiyotlar, atrof-muhitda sodir bo'layotgan voqea-hodisalar, ma'lumot olish vositasi o'quv qurollari hamda mantiqiy tafakkur jarayonidan iborat. Ma'lumot oila, bog'cha, maktab, akademik litsey yoki kasb-hunar maktabi, oliy o'quv yurti, maktabidan tashqari ta'lim muassasalari, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim shakllari hamda qayta kasbga tayyorlashda o'zlashtiriladi. Zamonaviy axborot va raqamli savodxonlik

jamiyatida bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lish ta'limning innovatsion natijasidir. Inson tez o'zgaruvchan dunyoda va axborot oqimlarida harakat qilishi, yangi texnologiyalarni o'zlashtirishi, o'z-o'zini o'rganishi, tahlil qilishi, yangi bilimlarni qidirishi va ulardan foydalanishi zarur.

Savodxonlik darsining maqsad va vazifalari.

Savodxonlik darslari o'quvchilarning o'qish, yozish va matnni tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday darslar o'qituvchilarning metodik mahoratini oshirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish va innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish imkonini beradi. Shuningdek, savodxonlik darslari orqali o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi va ijodiy yondashuvi shakllanadi. Savodxonlik darslari nafaqat o'quvchilarga, balki o'qituvchilarga ham ko'plab foydali ko'nikmalarni amaliyotga tatbiq qiladi. Ushbu darslarning asosiy maqsadi- o'qituvchilarga o'quvchilarni savod o'rgatish, to'g'ri yozish, o'qish va nutq madaniyatini shakllantirish bo'yicha samarali metodlarni o'rgatishdir. Shuningdek, savodxonlik darslarida xotira mashqlarini muntazam olib boorish, amaliy ko'nikma yondashuviga asoslangan ta'lim sohasida o'zgarishlarga ehtiyoji bor bo'lib, bugungi kunda ta'lim sohasida nafaqat bilimdon, balki o'z bilimlarini savodli yoza olish, amalda qo'llay oladigan kadrlarni tayyorlash uchun ta'lim sohasi modernizasiya qilinmoqda. Mamlakatda oliy ta'lim islohoti modernizasiyasi bevosita talabalar uchun yangi imkoniyatlardan iborat bo'lgan zamonaviy ta'lim sifatiga erishishni nazarda tutadi. [6].

Asosiy vazifalari:

- o'qituvchilarning til va adabiyot fanlari bo'yicha bilimlarini mustahkamlash;
- savodxonlikni o'rgatishning zamonaviy pedagogik va psixologik asoslarini tushuntirish;
- interfaol va innovatsion dars usullarini qo'llashni o'rgatish.

Savodxonlik darslari boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun asosiy bilimlarni shakllantirish jarayonining ajralmas qismidir. Shu sababli, bōlajak o'qituvchilar uchun ham savodxonlik bōyicha puxta tayyorgarlik muhim ahamiyat kasb etadi.

Kasb kompetensiyasi rivojlantirishning muhim yo'llari:

- Amaliy mashg'ulotlar- talabalarga dars berish tajribasini oshirish uchun real sinf sharoitlarida tajriba o'tash imkoniyatini yaratish.
- Pedagogik treninglar- innovatsion usullar va yangi ta'lim texnologiyalari bo'yicha seminarlarda qatnashish.
- Raqamli savodxonlik- onlayn ta'lim.

Kasbiy kompetensiyani rivojlantirish usullari:

1. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish – Elektron darsliklar, interfaol taqdimotlar va o'quv dasturlari o'qituvchilarning darslarni yanada samarali tashkil etishiga yordam beradi.

2. Interfaol metodlarni joriy etish – Rolli o‘yinlar, klaster usuli, muammoli ta’lim kabi usullar o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini oshiradi.
3. O‘qituvchilar uchun malaka oshirish kurslari – Doimiy ravishda yangi bilim va ko‘nikmalarni egallash o‘qituvchilarni zamonaviy ta’lim talablariga moslashtiradi.
4. Tahliliy va reflektiv yondashuvni rivojlantirish – O‘qituvchilar o‘z darslarini tahlil qilish va muammolarni aniqlash orqali pedagogik yondashuvlarini takomillashtirishlari mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bōlsak, savodxonlik darslari bōlajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining nafaqat kasbiy bilimlarini, balki pedagogik mahoratini ham rivojlantiradi. Bu jarayon o‘qituvchilarga o‘quvchilarning tafakkurini shakllantirish, mustaqil fikrlashga o‘rgatish va ijodiy yondashuvni rivojlantirish imkonini beradi. Shunday qilib, savod o‘rgatish darslari nafaqat boshlang‘ich ta’lim sifatini oshiradi, balki kelajak avlodning intellektual rivojlanishiga ham asos bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh. O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. Toshkent sh., 2020-yil 6-noyabr, PF-6108-son.
2. Musurmonova O. Pedagogik texnologiyalar – ta’lim samaradorligining muhim omili. – T.: Yoshlar tashkiloti, 2020. – 52 b.
3. Ortiqova Dilsabo Munavvarjon qizi – "Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy rivojlantirishning ilmiy-pedagogik jihatlari".
4. Isroilova Ruhshona Sunnatovna – "Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni".
5. Jalilova Dilshoda. "Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasi tarkibiy qismlarining mazmun-mohiyati".
6. Zamonaviy pedagog qiyofasi: marifat.uz